


I S T E ' M O L B O Z O R I

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 %ga oshdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,3 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 140,8 %ga o'sdi.


2018 yil yanvar –iyun oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning 2 ta, jumladan Baliqchi (100,0%), Ulug'nor (100,0%) va Ho'jaobod (100,0%) tumanlaridan tashqari barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Izboskan tumani (6,0 %ga), Paxtaobod tumani (6,0 %ga), Buloqboshi tumani (4,9 %ga), Andijon shaxri (4,7 %ga) va Shaxrihon tumanida (4,4 %ga), nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Honobod shaxri (0,1 %ga), Bo'z (0,3 %ga) va Oltinko'l (0,4 %ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (31,5 %), Shaxrixon (14,6 %), Asaka (9,6 %), Qo'rg'ontepa (6,9 %) va Andijon (5,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1,8 % ga oshib, 1641,8 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar – iyun oylarida 1307,4 ming so'mni tashkil qilgan edi). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Andijon shahri (3647,5 ming soʻm), Shaxrixon tumani (2525,3 ming soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumanida (1656,6 ming soʻm) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 65,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 7,5 %ga oʻsdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,3 %ni tashkil etdi

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi		
	Ming soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha:	1641,8	101,8
Andijon sh	3647,5	103,4
Honobod sh	1032,1	98,8
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	1023,5	100,1
Asaka	1509,6	99,9
Baliqchi	1115,0	98,4
Boʻz	831,8	98,6
Buloqbooshi	1134,2	103,3
Jalaquduq	1069,4	101,0
Izboskan	1095,7	104,1
Ulugʻnor	774,3	98,4
Marhamat	837,6	100,8
Oltinkoʻl	935,3	98,6
Pahtaobod	1185,0	104,1
Hoʻjaobod	1159,7	98,5
Shaxrixon	2525,3	102,6
Qoʻrgʻontepa	1656,6	102,0

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 78,3 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 3039,6 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 61,2% ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Ho'jaobod tumanida 94,4 %, Bo'z tumanida 87,7 %, Jalaquduq tumanida 86,8 %, Buloqboishi tumanida 86,5 %, Oltinko'l tumanida 85,3 % va eng past ulush Andijon shahrida 66,5 %, Andijon tumanida 78,5 % qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-iyun oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 907,4 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 101,2 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi tumanlarning o'sish sur'atida kamayish kuzatildi: Jalaquduq – 13,0 %, Shaxrixon – 88,6 %, Izboskan – 99,9 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 8,8 %ga o'sdi va 591,5 mlrd. so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 65,2 %ni tashkil qildi.

